JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Pardayev Baxtiyor Mustofoyevich
Sport Faoliyati kafedrasi o’qituvchisi, Alfraganus Universiteti
zulayhopardayeva8@gmail.com
+998903721414

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jismoniy tarbiya vositalari asosida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritib berilgan. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim tizimida ijodiy tafakkurni shakllantirishning dolzarbligi, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining shaxs kamolotidagi o‘rni hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, STEAM ta’limi doirasida jismoniy faoliyat orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda ijodiy yechimlar topish va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqolada jismoniy tarbiya vositalarining psixologik va fiziologik rivojlanishga ta’siri hamda ularning kreativ fikrlashni shakllantirishdagi metodik imkoniyatlari* ***ilmiy jihatdan yoritilgan.***

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, ijodiy qobiliyat, kreativ tafakkur, nazariy-metodik asoslar, innovatsion pedagogika, STEAM ta’limi, o‘quvchi shaxsi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития творческих способностей учащихся средствами физического воспитания. Анализируется актуальность формирования творческого мышления в системе современного образования, роль занятий по физическому воспитанию в развитии личности, а также значение инновационных педагогических подходов.*

Особое внимание уделяется возможностям STEAM-образования в развитии самостоятельного мышления, навыков решения проблемных ситуаций и жизненных компетенций учащихся посредством физической активности. В работе раскрывается влияние средств физического воспитания на психологическое и физиологическое развитие обучающихся и их роль в формировании креативного мышления.

***Ключевые слова**: физическое воспитание, творческие способности, креативное мышление, теоретико-методические основы, инновационная педагогика, STEAM-образование, личность учащегося.*

***Annotation.** This article examines the theoretical and methodological foundations of developing students' creative abilities through physical education. The study analyzes the relevance of fostering creative thinking in modern education, the role of physical education in personal development, and the importance of innovative pedagogical approaches. Special attention is given to the potential of STEAM education in enhancing students' independent thinking, problem-solving skills, and life competencies through physical activity. The article also highlights the psychological and physiological effects of physical education tools and their methodological role in shaping creative thinking.*

***Key words:** physical education, creative abilities, creative thinking, theoretical and methodological foundations, innovative pedagogy, STEAM education, student personality.*

Kirish

Dunyo ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning zamonaviy rivojlanish bosqichida ta'limni davr talablariga muvofiq takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlardan va innovatsion texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Jahon miqyosida sifatli ta'lim berish jarayoniga alohida

e’tibor qaratilar ekan, bir qator zamonaviy ta’lim dasturlari, jumladan, ta’lim oluvchilarning tabiiy va iqtisodiy fanlar yo‘nalishida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarining kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorlikni tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga asoslangan STEAM ta’limi joriy qilindi. Jismoniy tarbiya vositalari yordamida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi va ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv nafaqat jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini qiziqarli va samarali tashkil etishga, balki o‘quvchilarning ijodkorligini qo‘llash orqali hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Jahonda qiyosiy tadqiqotlarni tashkil etishdan maqsad ta’lim oluvchilarda hayotiy hodisalardagi ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni anglash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyalarini shakllantirish, atrofimizdagi olamni tushunish va inson faoliyati natijasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, shunga ko‘ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlarini aniqlashtirishni taqozo etmoqda. Jismoniy tarbiya vositalari yordamida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish insonning ijodiy salohiyatini shakllantirishga yo‘naltirish zarurati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu xalqaro miqyosda innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodika o‘quvchilarning jismoniy faoliyatda psixologik va fiziologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash orqali kreativ fikrlash va amaliy yechimlarni shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

Respublikamizda xalqaro andozalar asosida Milliy o‘quv dasturining qabul qilinishi, unda amaliyot va o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga keng o‘rin ajratilishi, xalq ta’limi tizimida o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyalariga alohida e’tibor qaratilishi bu borada ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazish zaruratini anglatadi. Jismoniy tarbiya darslarini o‘tkazish sifatini yaxshilash, ilg‘or ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish, ayniqsa, ijodiy yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali ta’lim oluvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy-matorika qobiliyatlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlarni yaxlit tizim sifatida ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Jismoniy tarbiya fani va amaliyotida jismoniy tarbiya darslarida maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, aqliy va harakat qobiliyatlarini integral tarzda namoyon etishga qaratilgan asosli uslubiy yechimlar haligacha yetarli emas. Jismoniy tarbiya darslarida subyektiv ijodkorlikni shakllantirish jarayoni kam o‘rganilganligicha qolmoqda.

Binobarin, umumta'lim maktablarida ijodiy qobiliyatlar va o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish natijasida yaratilgan ijodiy faoliyat mahsuloti shaklida yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmasa ham, rivojlantiruvchi xususiyati jihatidan juda muhim hisoblanadi. Bu eng avvalo, qobiliyatlarni rivojlantirish va shaxsni kamol toptirishda namoyon bo‘ladi.

Ijodiy faollik muammolari nafaqat faylasuflarni, balki boshqa fanlar vakillari, xususan, psixologlar, pedagoglar va boshqalarni ham qiziqish obyekti hisoblanadi. Ijodiy faoliyat muammolari bilan L.S.Vigotskiy, O.Ya.Galperin, A.N.Leontev, Ya.P.Ponomarev, A.B.Rodionov, K.A.Abulxanova, A.B.Brushlinskiy, S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidov, S.D.Neverkovich va boshqalar shug‘ullanganlar.

Haqiqiy ijodiy jarayon ma’lum bir faoliyat turida namoyon bo‘lib, u o‘quv aqliy faoliyat bo‘ladimi, jismoniy harakat bo‘ladimi yoki mustaqil ish bo‘ladimi o‘xshash mexanizmda amalga oshadi.

L.S.Vygotskiy ijodiy faoliyat haqida gapirganda, "ijodiy faoliyat darhol paydo bo‘lmay, asta-sekin paydo bo‘ladi, ko‘pincha elementar, oddiy shakllardan murakkabroq shakllarga o‘tadi, har bir yosh bosqichida u o‘ziga xos ifodaga ega bo‘lib, bolalikning har bir davrida o‘ziga xos ijodkorlik shakli bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, u inson xatti-harakatlarida alohida ajralib turmasa ham, faoliyatining boshqa shakllariga, xususan, to‘plangan tajribaga bevosita bog‘liqliq bo‘ladi" [43; 8-b.].

A.Luk ijodkorlik faoliyati muammosida ijod jarayoni, ijodkor shaxs, ijodkorlik qobiliyati, ijodiy muhit kabi bir necha jihatlarni ajratib ko‘rsatadi. Bundan tashqari, u ijodiy qobiliyatlar har qanday normal bolaga xos ekanligini ta’kidlaydi - faqat ularni ochib bera olish va rivojlantirish kerak deb ta’kidlaydi.

L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha, ijodkorlik elementlari kundalik hayotiy vazifalarni hal qilishda namoyon bo‘ladi, ularni oddiy maktab o‘quv jarayonida ham kuzatish mumkin. Ijodiy qobiliyatlar uch guruhga bo‘linadi. Dastlabkisi motivatsiyalar (qiziqishlar va moyilliklari) bilan, ikkinchisi temperament (emotsionallik) bilan va uchinchi guruh aqliy qobiliyatlar bilan bog‘liq klassifikatsiyalanadi.

Ushbu nuqtayi nazarga amal qilib va ijodkorlik qobiliyati barcha vaziyatlarda va barcha odamlar uchun potensial mavjud deb hisoblanadi, ammo tadqiqotning obeykti, o‘quv faoliyati sohasiga asoslanib, jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish doirasiga alohida e’tibor qaratildi.

Inson ongining elementar qobiliyatlari hamma uchun bir xil bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha "tafakkur" va "ijodkorlik" tushunchalari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi.

Masalan, I.P. Kaloshina o‘z asarlarida "ijodiy faoliyat" va "ijodiy tafakkur"ni yaxlit va bir butun tushuncha sifatida ko‘rib chiqadi. M.Ya.Vilenskiy va S.N.Zaysevaning mulohazalari shundan iboratki, "ijodkorlikning psixologik asosi divergent tafakkur hisoblanadi, ya’ni inson o‘z

tafakkurini bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘nalishlarda boshqarishi mumkin bo‘lgan qobiliyatdir. Bir tomondan, u bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqilayotgan hodisaning bir nechta aloqalarini "ko‘rib chiqish" imkonini bersa, ikkinchi tomondan, mutlaqo yangi aloqalarni topish va kashf etish imkonini beradi”.

Ijodiy faoliyat tafakkurdan tashqari ong, intuitsiya, tasavvur, motivlar, emotsiyalar, xotira, iroda, qobiliyatlar kabi boshqa psixik hodisalarni ham o‘z ichiga oladi.

V.A.Yakovlev va A.N.Leontyev aks ettirish va ijodning o‘zaro bog‘liqligi haqida bir xil fikr yuritdilar. Agar V.A.Yakovlev “aks ettirish” va “ijodkorlik” ni ijtimoiy-madaniy faoliyatda bir xil darajada muhim rol o‘ynaydigan inson tafakkurining bir-birini to‘ldiruvchi omillar deb bilgan bo‘lsa, unda A.N.Leontev psixik aks ettirishni ta’riflab, "u passiv emas, jonsiz emas, balki faol, uning ta’rifiga inson hayoti, amaliyoti kiradi va u obyektivning subyektivga doimiy ravishda quyilish harakati bilan tavsiflanadi" deb ta’kidlagan.

M.Ya.Vilenskiy va S.N.Zaysevalar "Hozirgi vaqtda ijodkorlikning yagona tushunchasi mavjud emas, uni ta’riflashda ikkita asosiy tendensiya kuzatiladi: birinchisi - ijodkorlik mutlaqo yangi narsani yaratishdir, ikkinchisi esa subyektiv ijodkorlik imkoniyatini nazarda tutadi," - deb ta’kidlaydi. Agar faqat birinchi konsepsiyaga qo‘shiladigan bo‘lsak, ijodiy faoliyat faqat iqtidorli odamlar uchun mavjud bo‘lgan boshqarib bo‘lmaydigan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu borada L.S.Vigotskiyning fikri yanada qiziqroq: “Agar ijodkorlikni uning haqiqiy psixologik ma’nosida, yangilikni yaratish sifatida tushunadigan bo‘lsak, ijodkorlik ozmi-ko‘pmi darajada barchaning ulushi, u bola rivojlanishining normal va doimiy hamrohi degan xulosaga kelish mumkin”. Psixolog tomonidan shakllantirilgan mazkur xulosadan bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash bilan bog‘liq g‘oya kelib chiqadi.

L.S.Vigotskiy “Bolalar ijodiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki u faqat vunderkinlardagina emas, balki oddiy bolalarda ham namoyon bo‘ladi” deb ta’kidlaydi. Bu konseosiyaga ko‘ra ijodkorlikni o‘rgatish mumkin va zarur, faqat unga kerakli bo‘lgan muhitni yaratish talab etiladi.

"Sinov va xatolar metodi bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat - empirik yo‘l bilan ongsiz darajada yagona imkoniyat bo‘lishi mumkin emas"- deb yozadi I.P. Kaloshina. Muallif me’yoriy ijodiy faoliyatni ongsiz darajada sinov va xatolar usuli bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyatga qarshi qo‘yadi.

Tadqiqotimiz maqsad va vazifalariga ko‘ra ongli ravishda rejali hamda nazariy yo‘l bilan, mavhumlikdan aniqlikka o‘tish usuli orqali amalga oshiriladigan me’yoriy ijodiy faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi.

N.F.Talizina aqliy va jismoniy faoliyat o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikni "Qo‘llar doimo miyaga bo‘ysunadi, ular buyruqlarini bajaruvchilaridir" degan so‘zlar bilan ta’kidlayd.

Jismoniy madaniyat insonning harakatli va aqliy mohiyatiga taalluqli bo‘lganligi sababli, shaxsning ijodiy faolligi toifasi ushbu faoliyat turlariga nisbatan qiziqishni oshiradi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda shuni ta’kidlash kerakki, maktab o‘quvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirish mumkin va zarur, faqat buning uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish, didaktik muhitni shakllantirish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Abulxanova K.A. Shaxs va faoliyat. Moskva: Nauka, 1980. 335 b

2.Davidov V.V. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi.Moskva: Intor, 1996. 544 b.

3.Galperin O.Ya. Aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi. Moskva: MGU nashriyoti, 1976. 152 b.

3.Kaloshina I.R. Ijodiy faoliyat va ijodiy tafakkurning psixologik asoslari. Moskva: Pedagogika, 1985. 168 b.

4.Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. Moskva: Politizdat, 1975. 304 b.

5.Neverkovich S.D. Ijodiy faoliyat va pedagogik jarayon. Moskva: Pedagogika, 1991. 176 b

6.Ponomaryov Ya.R. Ijod psixologiyasi. Moskva: Nauka, 1976. 280 b.

7.Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. Moskva: Pedagogika, 1982. 287 b.

8.Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. Moskva: Pedagogika, 1989. 328 b.

9.Rodionov A.B. Shaxsning ijodiy faolligi va uni rivojlantirish masalalari. Moskva: Pedagogika, 1988. 190 b.

10.Talizina N.F. Aqliy faoliyatni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari. Moskva: Pedagogika, 1984. 192 b.

11.Хайитов, И. Б., & Бабажонов, А. Б. (2024). Роль лапароскопических вмешательств в лечении эхинококкоза печени. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(19), 201-204.

12.Mavlyanov, O. R., Ataliev, A. E., Mavlyanov, J. A., Babajonov, A. B., Yusupbekov, D. A., & Nurmatov, S. I. (2019). A SINGLE-ROW SUTURE IN SURGERY OF THE GASTROINTESTINAL TRACT. Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi, (2), 28-35.

13.Teshayev, O. R., Khayitov, I. B., Babajonov, A. B., & Bobonazarov, S. B. (2025). BARIATRIC SURGERY IN LIVER CIRRHOSIS: A COMPREHENSIVE REVIEW OF CURRENT EVIDENCE. AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE, 3(6), 172-187.

14.Bakhodirovich, K. I., Normuminovich, J. E., Abdurakhmonovich, S. A., & Bakhodirovich, B. A. (2025). ALBENDAZOLE THERAPY FOR HEPATIC HYDATID DISEASE. AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE, 3(6), 107-112.

15.Vilenskiy M.Ya. Shaxs ijodkorligining psixologik mexanizmlari. Moskva: Nauka, 1990. 214 b.

16.Vilenskiy M.Ya., Zayseva S.N. Ijodkorlikning psixologik asoslari sifatida divergent tafakkur // Psixologiya masalalari. 1991. №4. B. 45–52.

17.Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. Moskva: Pedagogika, 1982. 287 b.

18.Zayseva S.N. Divergent tafakkur va uning ijodiy faoliyatdagi o‘rni. Moskva: Pedagogika, 1992. 156 b.